

## THE NEED TO HARMONIZE THE ACCOUNTING POLICIES OF TAXPAYER ACTIVITIES WITH THE REQUIREMENTS OF IFRS No. 12 «INCOME TAXES»

**Rizaev H.**

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan (Tashkent, Uzbekistan)

**Annotation:** The existing accounting system in the Republic of Uzbekistan allows for the consistent elimination of discrepancies and deficiencies in the country's accounting practices, aligning them with the requirements of a market economy without compromising their integrity. To provide foreign investors with the necessary informational environment, expand access to international financial markets, and enhance the training system for accounting and auditing specialists in accordance with international standards, the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4611 «On Additional Measures for Transition to International Financial Reporting Standards» was adopted. Addressing issues arising during the implementation of specific solutions remains challenging for accountants and specialists in this field due to the complexity of understanding the essence of International Financial Reporting Standards (IFRS) and the Tax Code. In particular, the provisions of the Tax Code (TC) and National Accounting Standards (NAS) are considered regulatory and mandatory, and they can be used in case of disputes, including court cases. In contrast, IFRS are conceptual documents. When applied to specific operations, their norms tend to have a reconciliatory nature.

**Key words:** International Accounting Standards, IAS-12 «Income Taxes», IFRS, permanent differences, temporary differences, accounting profit, taxable profit, deferred tax liabilities, Tax Code, taxation.

## НЕОБХОДИМОСТЬ ГАРМОНИЗАЦИИ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ СУБЪЕКТОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКОВ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО № 12 «НАЛОГИ НА ПРИБЫЛЬ»

**Ризаев Х.**

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

**Аннотация:** Совершенствование системы финансового учета и отчетности в Узбекистане на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) – существующая система бухгалтерского учета позволяет последовательно устранять несоответствия и недостатки в системе бухгалтерского учета нашей Республики требованиям рыночной экономики, не ставя под угрозу ее целостность. В целях обеспечения иностранных инвестиций необходимой информационной средой и расширения доступа к международным финансовым рынкам, а также совершенствования системы подготовки специалистов в сфере бухгалтерского учета и аудита по международным стандартам путем ускорения перехода на МСФО было принято постановление Президента Республики Узбекистана PQ-4611 “О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности”. Для того чтобы найти решение вопросов, возникающих в процессе исполнения того или иного решения, бухгалтеру и специалистам в этом направлении крайне сложно разобраться в сути международных стандартов финансового учета и налогового кодекса. В частности, положения Налогового кодекса (НК) и национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБУ) считаются регламентирующими и

обязательными, и в случае возникновения споров, в том числе в судах, они могут быть использованы, в то время как международные стандарты финансового учета (МСФО) являются концептуальными документами.

**Ключевые слова:** Международный стандарт бухгалтерского учета, МСФО-12 “Налоги на прибыль”, постоянные разницы, временные разницы, прибыль бухгалтерского учета, налогооблагаемая прибыль, отсроченное налоговое обязательство, налоговой кодекс, налоги.

## **SOLIQ TO‘LOVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING SOLIQ SOLISH MAQSADLARIDA HISOB SIYOSATINI 12-SON “FOYDA SOLIQLARI” BHXS TALABLARIGA UYG‘UNLASHTIRISHNING ZARURIYATI**

**Rizaev H.**

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi (Toshkent, O‘zbekiston)

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobot tizimini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida takomillashtirish – mavjud buxgalteriya hisobi tizimi yaxlitligini buzmasdan, izchillik bilan, vatanimiz buxgalteriya hisobi tizimining bozor iqtisodiyoti talablariga nomuvofiqligi va kamchiliklarini bartaraf qilish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalarini mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida (Uz.R.RQ-4611 24.02.2020) 2020-yil 24-fevralda O‘zbekiston Prezidenti "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi RQ-4611-sonli qarorni imzoladi. Qarorni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan savollarga yechim topish uchun buxgalter va soha mutaxassislari moliyaviy hisobning xalqaro standartlari va soliq kodeksining mohiyatini anglab yetishi o‘ta muhim. Jumladan, soliq kodeksi (SK) va Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) qoidalari reglamentga oid va majburiy hisoblanib, nizolar yuzaga kelgan holatda, shu jumladan sudlarda ulardan foydalanish mumkin bo‘ladi, moliyaviy hisobning xalqaro standartlari (MHXS) esa konseptual hujjatdir. Muayyan operatsiyalarga nisbatan uning qoidalaridan foydalanishda hujjat kelishtiruvchi tusga ega bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti, 12-son “Foyda soliqlari”, Moliyaviy hisobning xalqaro standarti, doimiy farqlar, vaqtinchalik farqlar, buxgalteriya foydasi, soliqqa tortiladigan foyda, kechiktirilgan soliq majburiyatlari, soliq kodeksi, soliqlar.

**Kirish.** Ko‘pchilik O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini cheklovchi omillardan biri hisobning xalqaro standartlariga mos tizim va isloh qilingan bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga to‘liq mos keladigan buxgalteriya hisobotlarining mukammal emasligi deb hisoblaydi. Xalqaro standartlarga o‘tishning maqsadga muvofiqligi bugungi kunda hamma uchun ravshan. O‘zbekistondagi tadbirkorlik subyektlari MHXS bo‘yicha buxgalteriya hisobiga o‘tishlari uchun, amalda yuritib kelingan BHMS lariga muvofiq yuritilgan barcha dastlabki ma’lumotlar taqqoslanadigan bo‘lishi kerak, buning natijasida BHMS larini MHXS ga transformatsiya jarayonining aniqligi va ishonchliligi ortadi. Respublikamizda sohada qabul qilinayotgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar xam bu mavzu qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Maqolada moliyaviy hisobotlarni MHXS formatiga transformatsiya qilish jarayonida Soliq to‘lovchi tadbirkorlik subyektlarining soliq solish maqsadlarida hisob siyosatini 12-son “Foyda soliqlari” buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) talablariga uyg‘unlashtirishning zaruriyati yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-arpeldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RF-4720-sonli,

2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi RF-4947-sonli, 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi RF-5544-sonli farmonlari, 2020-yil 24-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi RQ-4611-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-sonli qarori hamda mazkur sohaga oid bo‘lgan boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ham o‘z hisob yuritish siyosatlarida ma‘lum bir o‘zgartirishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Jumladan hisob siyosatlarida foydani soliqqa tortishda xalqaro standartlar qoidalarini qo‘llash xam muhim element bo‘lib, tadbirkorlik subyektlarining notijorat tashkilotlaridan asosiy farqi, u o‘z faoliyatidan foyda olishni maqsad qilganligidir. Shu sababli buxgalteriya hisobida foydani aniq hisob-kitob qilish muhim. Foyda hozirgi kunda turli maqsadlarda aniqlanadi. Masalan, sarmoyadorlar va ishtirokchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyatining real daromadini aniqlash va kelajakdagi rejalarni shu ma‘lumot asosida tuzish uchun yoki foyda solig‘iga tortiladigan foydani hisob-kitob qilish uchun. Foydani soliqqa tortish maqsadlarida aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi soliq kodeksida belgilab qo‘yilgan. Foydani sarmoyadorlar va ishtirokchilar e‘tiboriga havola qilish uchun aniqlash 2020-yilgacha asosan Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida aniqlanib kelingan. Keyinchalik yuqoridagi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni qabul qilinishi bilan foydani aniqlash, ba‘zi tadbirkorlik subyektlari uchun Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida hisob-kitob qilinishi belgilandi. Shu o‘zgarishlarni samarali amalga oshirish va hisobning xalqaro standartlarini O‘zbekiston qonunchiligiga transformatsiyasini qaltis sakrashsiz, ohista amalga oshirish maqsadida Foyda soliqlari (12–son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartini mamlakatimiz moliyaviy hisob tizimiga transformatsiya qilish, buning uchun avvalo soliq solish maqsadlarida hisob siyosatiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish lozim.

**Adabiyotlar sharhi.** Keyingi yillarda respublikamizda ham moliyaviy hisob va hisobotni takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi hamda ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chor qilinmoqda. Bularga mamlakatimiz olimlari va mutaxassislaridan A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, O.O.Barakayev, D.E.Norbekov, I.K.Ochilov, B.Urazov, Z.N.Qurbanov I.N.Ismanov, B.I.Isroilov, A.A.Karimov, Z.T.Mamatov, S.U.Mehmonov, O.Bobojonov, M.Q.Rardaev, S.N.Tashnazarov, U.I.To‘laev, N.B.Xo‘jabekov, B.K.Hamdamiyov va boshqa qator olim va mutaxassislarning izlanishlarini kiritishimiz mumkin. Mazkur olim va mutaxassislarning tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Tahlil va muhokama.** Foyda soliqlari (12–son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartini respublikamiz amaliyotiga transformatsiya qilish jarayonida xam korxonalar o‘z hisob yuritish tizimiga yangi sintetik hisobga olish qatorlarini qo‘shishi kerak bo‘ladi. Hisob tizimi, jurnallarda yoki elektron yuritilishidan qat‘iy nazar yangi mezonlarni joriy qilish Foyda soliqlari (12–son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti asosida soliqlarni hisoblab chiqarishda zarur bo‘ladi. Tashkilotlar uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun tan olingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matni asosida foyda soliqlari hisob-kitobini amalga oshirish, bevosita, Buxgalteriya hisobi bo‘yicha foydani, Soliq solinadigan foyda (soliq zarari)ni, Soliq xarajati (soliq daromadi)ni, Joriy soliqni aniqlashni imkonini beruvchi hisob tizimini yaratilganligini talab qiladi. Bunda analitik hisob tarzida soliq bo‘yicha Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va (yoki) Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari, foydalanilmagan soliq zararlarini kelgusi davrlarga o‘tkazish, foydalanilmagan soliq imtiyozlarini kelgusi davrlarga o‘tkazish, Vaqtinchalik farqlar, kelgusida soliq solinadigan vaqtinchalik farqlar, kelgusida chegiriladigan vaqtinchalik farqlar kabi hisobga oluvchi mezonlar yoki shunday ko‘rsatkichlarni boshqa mezonlar asosida hisoblab chiqarish imkoniyatini mavjud bo‘lishi ham muhim.

Foyda soliqlari (12–son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti asosan holatlarning tuzilgan hisobotda to‘g‘ri va aniq ko‘rsatilishini urg‘ulaydi. Biroq voqelikni qayd qilish vaqtini ochiq qoldiradi. Shu o‘rinda hisobni xalqaro standartlar asosida yuritishni tashkil etayotgan xo‘jalik

subyektlarida, operatsiyalarni qaysi davrda qayd etish va qaysi hisobot davri uchun qayd etish masalasi yuzaga keladi. Asosan shunday holatlar analitik hisob yuritishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. MHXS professional mulohazadan kelib chiqishga odatlanganligi sabab operatsiyalarni qaysi davr tarkibida qayd etish ham ma'lum bir shartlar asosida professional mulohaza amaliyotiga havola qilinadi. Z.N.Kyrbayev va A.Akramovlarning qayd etishicha "Respublikamizda buxgalteriya hisobini bosqichma-bosqich moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jahon integratsiyasiga yanada kengroq kirib borish imkoniyatini beradi. Bu esa Respublikamizda buxgalteriya hisobini isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi bosqichi bo'lib qoladi". O.Sobirovning qarashicha: "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga transformatsiya qilinish jarayonlarini jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot hamda ma'lumotlar bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yildan boshlab, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar (MHXC) asosida yuritishni tashkil etishda va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tayyorlaydi". E. L. Rytņikova, V. A. Urbanlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni quyidagicha izohlaydi: "Belaryc Respublikasining moliyaviy hisobotlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq o'zgartirish MHXCga o'tish yo'lidagi birinchi, juda muhim va majburiy qadamdir". Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini O'zbekiston hisob yuritilishiga transformatsiya qilishi maqsadida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ma'lum sohalarida izlanish va tadqiqotlar olib borilgan, hamda natijalariga ko'ra fikr va mulohazalar bildirilgan.

**Muammo.** MXHS, jumladan Foyda soliqlari (12-son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartini amaliyotga joriy qilishni yanada jadallashtirish bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan:

1. Mamlakatimizdagi yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar hozirgacha to'liq MHXSlari asosida moliyaviy hisobotni tuzishga erishmaganlar. Korxonalarda Foyda soliqlari (12-son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti asosida soliq solish maqsadlarida hisob siyosati, schyotlar rejasi, moliyaviy hisobotlarning MHXSdagi formatlari mukammal ishlab chiqilmagan. Aksar korxonalar BHMSlari bo'yicha hisobni yuritishni davom etmoqda.

2. Korxonalarda moliyaviy buxgalteriya hisobini soliq maqsadlari uchun yuritiladigan hisob deb qarash holatlari ham mavjud. Moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi investorlar, aksiyadorlar va ta'sischi uchun shaffof, jozibador, uyg'un va haqqoniy axborotlarni taqdim etish ekanligi, soliq hisobi esa soliq qonunchiligi talablariga to'liq bo'ysunganligini aniq bir ifoda etadigan metodologik ahamiyatga molik ishlar yetarli emas.

3. Korxonalar MHXSlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarning afzallik tomonlari, ularda aksiyadorlar va investorlar uchun foydali bo'lgan axborotlarni aks ettirish, eng muhimi haqqoniy baholashga asoslangan hisobot ekanligi, uning asosida nafaqat o'tgan hodisalar bo'yicha xulosa chiqarish, balkim kelgusi faoliyatga doir bo'lgan qarorlar ham qilish mumkinligi, uning samarali tizim, boshqaruvda muhim dastak ekanligini his qilishi va real hayotda joriy qilishlariga erishish kerak. Shundagi korxonalarining o'zlarida MHXSga, shu jumladan foydadan soliqni real aniqlash uchun Foyda soliqlari (12-son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartini qo'llashga qiziqish hamda uni qo'llash bo'yicha real imkoniyatlar yuzaga keladi.

4. Ko'pchilik aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda moliyaviy hisobot BHMSlari asosida yuritilmoqda. Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarda MHXSlar asosida hisob yuritish joriy qilingan. Ushbu hujjatlar o'rtasida tafovut katta. Bunday hollarda MHXSlarni jadal joriy qilishga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun BHMS.ni qayta ishlab chiqish va shu asosda hisob yuritishni ta'minlash lozim. Moliyaviy hisobotning milliy standartlari xalqaro standartlarning qisqartirilgan va maqbul bo'lgan varianti deb baholash mumkin.

5. Foyda soliqlari (12-son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartini jadal joriy qilishdagi muhim jihat malakali inson resurslari bilan bog'liq masala hisoblanadi. Foyda soliqlari (12-son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti asosida moliyaviy hisobot tuzish kompetensiyasiga ega bo'lgan mutaxassislar yetishmaydi. Xo'sh bugungi kundagi zamonaviy buxgalter

foydadan soliqlarni hisoblashda qanday bilim, ko'nikmalar va kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak? Ayniqsa bo'lg'usi mutaxassislarda xalqaro standartlar asosida Foyda soliqlari (12–son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti konseptual asoslari va ularning qo'llanilishi, moliyaviy hisobotlar, daromadlar va xarajatlarning ta'rifi, tan olinishi, baholanishi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi tartibi bo'yicha yuqori malakadagi kompetensiyalar shakllangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari mutaxassis moliyaviy hisobotlarga ochiqlashlar, izohlar va tushuntirishlar taqdim eta olishi lozim. Moliyaviy hisobotni tahlil qilish, xulosalar, boshqaruv qarorlari loyihalarini tayyorlash, moliyaviy boshqaruvga jiddiy ta'sir ko'rsata olish, boshqaruvchilik salohiyati lozim bo'ladi. Bugungi moliyaviy hisobot tayyorlaydigan mutaxassis albatta soliq qonunchiligini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Chunki, soliq qonunchiligi va talablari shaffof moliyaviy hisobotni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini yuqori saviyada qo'llay olish, xorijiy tillarni o'zlashtirish ham bugungi kunda qo'yilayotgan muhim talablar hisoblanadi.

**Xulosa va taklif.** Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom”ning juda katta o'zgarishlar kiritilganligini inobatga olib, buxgalteriya hisobiga, daromadlar va xarajatlarni tarkibini belgilab beruvchi va foydani aniqlab, foydadan soliqlarni hisoblab chiqarish va hisobini yuritish uchun yangi me'yoriy hujjat qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda foyda solig'ini hisoblash yuzasidan standartlarni ishlab chiqishda professional tashkilotlar ishtirokini kengaytirish kerak. Standartni ishlab chiqish vakolatini nodavlat va notijorat tashkilotlariga berish kerak. Vazirlik esa uni tasdiqlashi va davlat ro'yxatidan o'tkazishlari kerak, deb hisoblayman. Milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish kerak. Buning uchun professional imtihon talablari ishlab chiqilishi kerak. Ayniqsa baholash tizimi, masalalar to'plami, ularga tayyorgarlik ko'rish, imtihonlarni o'tkazish masalalari yechim topish kerak. Bu vazifalarni ham professional buxgalteriya hisobi institutlari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyot bilan ilm-fan, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida keng qamrovli aloqalarning sustligi ham Foyda soliqlari (12–son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartini jadal joriy qilishda ma'lum bir qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Bugun oliy ta'lim o'z yo'li bilan amaliyot o'z yo'li bilan ketmoqda. Buni jipsligini va hamkorligini kengaytirish kerak. Amaliyot har doim bilimli, jumladan MHXS asosida ishlay oladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezadi. Bizga oliy ta'lim yaxshi mutaxassislarni yetkazib bermayapti deb e'tiroz bildiruvchi ish beruvchilar ham topiladi. Bitta haqiqatni aytish kerak, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda korxonalar va tashkilotlar oliy ta'lim jarayoniga sust qatnashishmoqda. Nazariy bilimlar va amaliyot jarayonini bir-biri bilan hamkorlik qilishni tashkil etish, Buxgalteriya hisobini yuritish, soliq solish maqsadlarida hisob siyosatini ishlab chiqish va uni Foyda soliqlari (12–son BHXS) Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti talablariga uyg'unlashtirishda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaymiz.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси (янги таҳрири). Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон. Веб-сайт: <https://lex.uz/docs/4674902>

2. 2020-йил 24-февралдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4611-сонли Қарори. Веб-сайт: <https://lex.uz/uz/docs/4746047>

3. 2015-йил 24-апрельдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-4720-сонли Фармони. Веб-сайт: <https://lex.uz/docs/2635197>

4. Ибрагимов А.К., Очиллов И., Қўзиёв И., Ризаев Н. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. – Т.: «Иқтисод-молия», 2008. – 443 б.;

5. Ризаев Н.К, Баракаев О.О. Ўзбекистонда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МХХС ҳужжатлари) бўйича янги матн қўлланилмоқда “Инновацион ёндашув асосида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этиш” мавзусидаги халқаро илмий – амалий конференция материаллари тўплами., Т.: 2022 йил. 5-9 б.

6. Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик. –Т: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019. -408 б.

7. С.А.Кемаева, Е.И.ЛОДЫГИНА “Современный взгляд на применение ПБУ 18/02 «Учет расчетов по налогу на прибыль» в системе бухгалтерского учета организаций” Издательский дом ФИНАНСЫ и КРЕДИТ, 2017

8. Курбанов З.Н., Акрамов Ф.А. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг долзарб масалалари. «Бизнес-эксперт» журнали.2015 йил.4-сон.

9. Собиров О. Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар талаблари даражасида такомиллаштириш. «Халқаро молия ва ҳисоб» илмий журнали. № 3, июнь, 2021 йил.

10. Путникова Е. Л., Урбан В. А. Подготовка бухгалтерской отчетности согласно международным стандартам финансовой отчетности.. Весник Белорусской государственной сельскохозяйственной академии. 2022. №2

11. Lex.uz расмий сайти.